

## BOJXONA ORGANLARIDA GENDER TENGLIK STRATEGIYASINING AMALGA OSHIRILISHINI QO'LLAB-QUVVATLASH ORQALIY KORRUPSTYASIZ TIZIMGA ERISHISH

**Dilnoza Arabova Sherqulovna**

*Qashqadaryo viloyati Bojxona boshqarmasi  
Xotin-qizlar boshlang'ich tashkilot raisi,  
bojxona xizmati kapitani, katta inspektor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi organlarida gender tenglik strategiyasini qo'llab-quvvatlash va korrupsiyani oldini olish shuningdek O'zbekiston kelajagini yuksaltirishga o'zini munosib hissasini qo'shadigan sharaflari va mashaqqatli bojxona sohasida faoliyat yuritayotgan o'zbek ayollari hamda BMT Taraqqiyot dasturining "Davlat muassasalarining gender tenglik nishoni" dasturi bo'yicha keng yoritilgan.

**Kalit so'z:** Gender tenglik, Bojxona, xotin-qizlar, halolik,adolat, qonun, milliy dastur, O'zbekiston ayollarni, gender tenglik nishoni, O'zbekiston xotin-qizlar "Olma" uyushmasi, xalqaro xotin-qizlar kuni,

### KIRISH QISM:

Bojxona sohasida adolat, halolik va tartibni joriy qilishni xohlar ekanmiz, tizimga ayol xodimlarni jalb qilish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz shart! O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

So'nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq, imkoniyatlarga ega, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etish, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish 2030 strategiyasi haqida ko'rib chiqadigan bo'lsak 1-bobida: 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi (bundan buyon matnda — Gender strategiyasi) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan mamlakatni rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonunchilik hujjaligiga muvofiq ishlab chiqilgandir.

Qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoraliq gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib. Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 7 martdag'i PF-87-sod Farmoni bilan "2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy

hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" qabul qilingan bo'lib, unda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan.

Mazkur dasturda belgilangan vazifalar ahamiyati va dolzarbligini inobatga olib, Bojxona instituti tomonidan 2023 yil 11 may kuni "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi innovatsion rivojlanishida ayollarning roli va gender tengligini ta'minlash» mavzusida O'zbekiston xotin-qizlar "Olma" uyushmasi bilan respublika ilmiy-amaliy konferensiysi o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi raisining o'tinbosari O.Chorievning kirish so'zi bilan boshlandi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi deputati, Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi raisi Ye.Borisova tomonidan anjuman ishtirokchilariga o'z minnatdorchilik va tabrik ma'ruzasi taqdim etildi.

Gender masalalari butun dunyoda faol muhokama qilinmoqda va bu tendensiyalar O'zbekistonda ham rivojlanmoqda, unda ayollarning rolini yanada oshirish, salomatligini mustahkamlash, ta'lim olishiga g'amxo'rlik qilish, davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Gender tengligini ta'minlash, gender kamsitishlarga, shuningdek, ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllariga barham berish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2021 yilda O'zbekistonda 2030 yilgacha mo'ljallangan gender tengligiga erishish Strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda boshqaruvdagi ayollar sonining ko'payishi, gender nomutanosibligini kamaytirish, ta'lim olish imkoniyati, zo'ravonlik va ayollarni ta'qib qilish holatlariga qarshi kurashish nazarda tutilgan. Bugungi kunga kelib, respublikada gender tengligi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Muhtaram Prezidentimiz uning ahamiyatini doimiy ta'kidlab, mamlakatimizda xalqaro tashkilotlar ko'magida ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zga chiqib, bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarda xotin-qizlarning roli va ta'siri tobora ortib borayotganini ta'kidladi. Hozirgi vaqtda ularning boshqaruvi tizimidagi ulushi 33 foizni tashkil yetadi, 1500ga yaqin zamondoshlarimiz turli darajalarda yuqori lavozimlarni egallaganlar. Xotin-qizlarning salohiyatini yanada oshirish va ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida olti mingdan ziyod zamonaviy bilim, iste'dod va yetakchilik fazilatlariga ega vatandoshlarni o'z ichiga olgan kadrlar zaxirasi shakllantirildi. O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – ilmiy sohada xotin-qizlar ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovskaning ta'kidlashicha, Gender tenglik nishoni mamlakatning xalqaro majburiyatlarini va gender tengligini ta'minlash bo'yicha faol targ'ibotini bevosita qo'llab-quvvatlaydi. "O'zbekiston ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash va gender asosidagi zo'ravonlikka barham berish majburiyatini o'z zimmasiga oldi", — deb aytdi. "Bu esa gender tenglik tomon yo'nalishda muhim qadamdir. BMT Taraqqiyot dasturining "Davlat muassasalarining gender tenglik nishoni" dasturi gender masalalari bo'yicha milliy maslahatchisi Nodira Azizova Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan erishilishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy maqsadlar, bosqichlar va mezonlarni taqdim etdi. Dastur yakunida aniq natijalarga erishish asosida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bronza, kumush yoki oltin gender tengligi muhriga ega bo'ladi. BMTTD "Davlat muassasalarining gender tenglik nishoni" dasturining global koordinatori Ana Mariya Landa Ugarte xonim dasturning muvaffaqiyatli tajribasi bilan o'rtoqlashar ekan, O'zbekiston

Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona qo'mitasi jahon Bojaxona sohasida gender tenglik muhrini joriy etish bo'yicha ikki yetakchidan biri sifatida, bojaxona hamda global davlat boshqaruvi hamjamiyatida gender tengligini ta'minlashda tenglashishga arzigulik tashkilot bo'lish uchun noyob imkoniyatga ega ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona qo'mitas raisi o'rribbosari Otabek Choriev gender tengligini ta'minlashda va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirishda Davlat bojaxona qo'mitasi tomindan olib borilayotgan sa'y-harakatlarini yana bir bor tasdiqladi. Xususan, tashkilotning gender salohiyatini mustahkamlash, xalqaro va milliy kelishuvlar hamda majburiyatlar asosida standartlar va ko'rsatkichlarni belgilash. Gender masalalari butun dunyoda faol muhokama qilinmoqda va bu tendensiyalar O'zbekistonda ham rivojlanmoqda, unda ayollarning rolini yanada oshirish, salomatligini mustahkamlash, ta'lim olishiga g'amxo'rlik qilish, davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Gender tengligini ta'minlash, gender kamsitishlarga, shuningdek, ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllariga barham

berish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Hujjatda boshqaruvdagi ayollar sonining ko'payishi, gender nomutanosibligini kamaytirish, ta'lim olish imkoniyati, zo'ravonlik va ayollarni ta'qib qilish holatlariga qarshi kurashish nazarda tutilgan. Prezidentimizning Bojaxona xodimlariga qaratayotgan e'tibori ayollarga bo'lgan g'amxo'rliги, albatta, har birimizga mammunlik baxsh etmoqda. Harbiy xizmatchilarni turar joy bilan ta'minlash, ularning farzandlarini ta'lim olishiga imkoniyatlarni kengayishi – bularning barcha-barchasi bizni yanada sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi. Bojaxona sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar, Prezidentimiz tomonidan eng avvalo yurtimiz ravnaqi, qolaversa, xalqimiz farovonligi yo'lida tarixda qoladigan buyuk ishlardan biri bo'ldi. Prezidentning 2018 yil 24 noyabrdagi "Bojaxona ma'muriyatichilagini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona xizmati organlari faoliyati samaradorligin oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 5582-son farmoni fikrimizni yaqqol dalilidir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona qo'mitas chegarasi orqali o'tkazish punktlarida 2 yo'lakli tizimni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni ta'sdiqlash haqida" gi 814-son qarori bilan bojaxona postlari qizil, yashil yo'laklarni tashkil etilishi fuqarolarga, tadbirkorlarga bir qancha qulayliklar keltirgan bo'lsa, O'zbekiston bojaxonasini jahon standartlariga tenglashishiga yana bir asos bo'ldi. Shuningdek, Yurtboshimizning 2018 yil 6 fevraldagagi "Jismoniy shaxslar tomonidan bojaxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tlishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 3512-son qarori mehmondo'st xalqimizni yanada sevintirdi. Shuningdek, 103 nafar ayol xodimlar Bojaxona qo'mitasining ko'krak nishonlari va qimmatbaho sovg'alari bilan rag'batlantirilgan. "Bojaxona malikalari" ayollar jamoasi "To'maris izdoshlari - 2023" respublika tanlovida "Eng namunali tashkilot" nominatsiyasi, "Gimnastrada hamma uchun - 2023" sport festivalida "Eng uyg'un jamoa" nominatsiyasi g'olib bo'lgan. 2023-yil 23-dekabrda o'tkazilgan "Yil ayoli-2023" milliy tanlovi respublika bosqichida Andijon viloyati "Madaniyat" posti inspektori M.Ahmedova "Yilning eng vatanparvar ayoli" nominatsiyasida g'olib bo'lgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining "Qarshi Kerki" posti katta nspektori D.Arabova "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy davlat organi" nominatsiyasida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgan. Hozirda I nafar ayol xodim institut

doktoranturasida tahsil olmoqda, 2 nafari ta'lim dasturi bo'yicha kirish imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan.

## XULOSA

Erta tongdanoq harbiy libosni kiyib, xizmatga yo'l olganimda, bojxona xodimi degan sharafli kasbni tanlaganimdan qalbim g'urur va iftixorga to'ladi. Chegaradan o'tayotgan har bir yo'lovchi, xoh u dehqon bo'lsin, xoh sayyoh, xoh tadbirkor, yurtning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga, qolaversa, tinchligi, osoyishtaligini ta'minlashga bel bog'lagan ofiser ayolni ko'rib, hurmat va ehtirom bilan murojaat etganida, yuragimda vatanimni ishonchini oqlash burchi mavj uradi. Men avvalo ayolman, qolaversa, ikki nafar farzandning onasi, sadoqatli turmush o'rtoqman. Farzandlarim men tanlagan kasb bilan faxrlanishadi. Kelajakda ular ota-onasi singari vatanga, xalqimizga xizmat qilishni va el-yurtga munosib farzand bo'lishni orzu qilishadi. Albatta, ayol kishiga ham harbiy xizmatni o'tash, ham oila, farzandlar tarbiyasi kabi murakkab vazifani birday olib borish bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Qahraton qishda ham, jazirama yozda ham, tun-u kun zahmatli burchni ado etishda mendagi sabr-matonatni ko'rgan farzandlarim xaqiqiy vatansparvar qanday bo'lishi kerakligini tushinib yetganlar. Eng avvalo Yurtboshimizning g'amxo'rliqi, ota-onamning duosi, turmush o'rtog'imning qo'llab quvvatlashi, farzandlarimning mehr-u muhabbat, hamkasblarimning ishonchi va ko'magi menga doimo kuch bag'ishlab turadi. Har qancha qiyin bo'lmasin, men, doimo vatanim xizmatiga labbay deb javob beraman va farzandlarimni O'zbekiston kelajagini yuksaltirishga o'zini munosib hissasini qo'shadigan o'g'il-qizlar bo'lib yetishini ta'minlayman. Sharafli va mashaaqqatli bojxona sohasida faoliyat yuritayotgan o'zbek ofiser ayoli sifatida qalbim to'la vatan muhabbat bilan yashamoqdaman. Tanlagan sharafli va mashaaqqatli – vatan posbonidek sevimli kasbim bilan faxrlanaman va yurtimni sevib, unga sidqidildan xizmat qilaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari>
2. <https://advice.uz/oz/document/2712>
3. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/ozbekistonda-davlat-muassasalari-uchun-gender-tengligi-nishoni-ishga-tushirildi>
4. <http://fayllar.org/maruza-mashgulotlari-uchun-quyidagi-mavzular-tavsiya-tiladi.html?page=56>
5. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/bojxona-qomitasi-hamda-iqtisodiyot-va-moliya-vazirligi-gender-tengligiga-erishish-yolida-ishonchli-qadamlarni-davom>
6. Respublika Ezgulik gazetasi (2) 2024